

**“BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING KREATIV TAFAKKURINI
SHAKLLANTIRISHDA FANLARARO INTEGRATSIYADAN FOYDALANISH”
MAVZUSINI YORITISHDA ILMIY TADQIQOT METODLARIDAN
FOYDALANISH**

Iroda Egamqulova Safar qizi
Nizomiy nomidagi TDPU
I bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ tafakkurini shakllantirishda fanlararo integratsiyadan foydalanish mavzusini yoritishda ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanish tartibi va asoslari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: kreativ tafakkur, integratsiya, metod, analiz, sintez, induksiya, deduksiya, abstraktlashtirish, klassifikatsiyalash.

**THE USE OF SCIENTIFIC RESEARCH METHODS IN THE COVERAGE OF THE
TOPIC “USE OF INTERDISCIPLINARY INTEGRATION IN THE FORMATION
OF CREATIVE THINKING OF PRIMERY SCHOOL STUDENTS”**

ABSTRACT

This article describes the procedure and principles of using scientific research methods in the coverage of the topic using interdisciplinary integration in the formation of creative thinking of primary school students.

Key words: creative thinking, integration, method, analysis, synthesis, deduction, induction, abstraction, classification.

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДОВ НАУЧНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ ПРИ
ОСВЕЩЕНИИ ТЕМЫ «ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕЖПРЕДМЕТНОЙ
ИНТЕГРАЦИИ В ФОРМИРОВАНИИ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ
УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ»**

АННОТАЦИЯ

В данной статье описаны порядок и принципы использования методов научного исследования при освещении темы использование межпредметной интеграции в формировании творческого мышления учащихся начальных классов.

Ключевые слова: креативное мышление, интеграция, метод, анализ, синтез, дедукция, индукция, абстракция, классификация.

So'nggi yillarda O'zbekistonda bo'layotgan islohotlar ta'lim tizimi va turli fan tarmoqlarida ham o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda. Bunga misol tariqasida olimlarimizga ko'rsatilayotgan e'tibor va yangi innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish uchun yaratilayotgan sharoitlarni keltirishimiz mumkin. Bu jarayonda ilmiy tadqiqotlarni olib boorish uslublarini egallash alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Barchamizga ma'lumki, inson o'z ijodiy izlanishlari asosida dunyoni o'zgartiradiva o'zini ijodkor, kashfiyotchi sifatida namoyon etadi. Ijodning maxsus shakli bo'lgan ilmiy tadqiqot jarayoni o'ziga xos metodologik xarakterga ega. U subyekting borliq hodisalarini qay darajada bilishida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, ilmiy tadqiqot evristik harakterga ega. Zero, ilmiy tadqiqot jarayonida subyekt obyektga faol, izchil ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir jarayonida inson o'zini qurshab turgan muhitni o'zgartiradi, shu paytgacha ko'rilmagan, anglanilmagan, o'rganilmagan, yangilikni kashf etadi yoki to'liq o'rganilmagan sohalarni takomillashtiradi.

Ma'lumki ta'lim tizimini tubdan isloh qilish jarayonlari boshlang'ich ta'lim tizimi dasturlari va fan predmetlarini qayta ko'rib chiqib takomillashtirish jarayonlaridan boshlanadi. Bu jarayonlarni amalga oshirish esa bevosita boshlang'ich ta'lim tizimiga oid ilmiy tadqiqot ishlarni ko'proq bajarishni taqozo etadi. So'nggi yillarda dolzarb hisoblanayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ tafakkurga o'rgatish, ularning bu qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha metod va tavsiyalarni shlab chiqishga doir "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ tafakkurini shakllantirishda fanlararo integratsiyadan foydalanish" ilmiy tadqiqotini olib borishda qanday ilmiy metodlardan foydalanishni ko'rib chiqamiz.

Ilmiy tadqiqot insonning maqsadga muvofiq holda olib boriladigan ijodiy faoliyati, ilmiy tadqiqot predmeti va ilmiy tadqiqot olib boorish vositalarini o'z ichiga olar ekan. **Ilmiy tadqiqot predmeti** eng avvalo tadqiqotni bilish uchun inson faoliyati yo'naltirilgan obyektidir. Tadqiqot obyekt material dunyoning har qanday hodisa va jarayonlari bo'lishi muki. Tadqiqot predmetiga obyekt haqidagi mavjud builimlar va obyektidan tashqari bilimlar ham kiradi.

Yuqoridagilar asosida quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin, bizning ilmiy tadqiqotimiz "Boshlang'ich sinf o'quvchilariniong kreativ tafakkurini shakllantirishda fanlar aro integratsiyadan foydalanish", ilmiy tadqiqotimizning predmeti esa "boshlang'ich sinf o'quvchilari", tadqiqot obyekt esa ularning kreativ tafakkurini shakllantirish ekan.

Ilmiy tadqiqot bir necha turlarga bo'linadi. Ular:


Fundamental tadqiqot – bu muayyan soha bo'yicha bilimlarni rivojlantirish va ular asosida yangi bilimlarni hosil qilishdir.

Amaliy tadqiqot – mavjud ishlab chiqarish vositalarini yoki iste'mol predmetlarini takomillashtirish yoki yangisini yaratish bilan tavsiflanadi.

Ilmiy ishlanna – bu amaliy tadqiqot natijalarini, tajriba modellarini yaratishda va ishlatib ko'rishda, ishlab chiqarish texnologiyasida, shuningdek, ta'lim texnologiyalarini yaratishda hamda mavjud metodologiyani yoki texnika-texnologiyani mukammallashtirishda va ularni amaliy faoliyatda joriy etishdan iboratdir.

Demak, bizning tadqiqotimiz ishimiz ilmiy tadqiqotning ilmiy ishlanna turiga ko'proq mos kelar ekan. Negaki, biz ham ilmiy tadqiqotimiz davomida o'quvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirishda ayni vaqtda mavjud bo'lgan metodlar, texnologiyalarni mukammallashtirish va yangi texnika-texnologiyalarni yaratish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ustida ish olib boramiz.

Ilmiy izlanish olib boruvchi tadqiqotchi obyektni o'rganish jarayonida, o'rganilayotgan predmet yoki hodisa haqidagi bilimlarga birdaniga ega bo'lmaydi. Buning uchun u predmet yoki hodisa ustida ma'lum vaqt uzluksiz turli yo'llar, usullar va vositalardan ya'ni ilmiy bilish metodlaridan foydalanadi. Bu metodlarning ilmiy bilishdagi vazifasi shundan iboratki, ular tadqiqotchiga o'rganayotgan predmet yoki hodisa haqida, uning tabiati va mohiyatini ifodalaydigan qonun va qonuniyatlarni ochishga yordam berishdan, tadqiqotning muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlashdan iborat. Ilmiy tadqiqotda to'g'ri tanlangan metod qilinga kashfiyotdan qimmatlidir, chunki ushbu metod tadqiqotchiga bir necha ilmiy kashfiyotlarni keltirishi mumkin. Hozirda ilmiy tadqiqotlarda asosan quyidagi metodlardan foydalaniladi:



Analiz bu bir butunni ya'ni yaxlitni qismlarga, bo'laklarga va elementlarga ajratib, ularning har birini alohida o'rganib, ularning nima ekanligini va ularning funksiyalarini bilishdir. Bu metodni qo'llash natijasida butunni tashkil etgan qismlar bo'laklar va elementlarning butun tarkibidagi o'rni aniqlanadi. Analiz orqali predmet va hodisalarning tarkibi, tuzilishi aniqlanadi.

Sintez – analiz tufayli ajratilgan qismlar, bo'laklar va elementlarni o'zaro biriktirib, ularni yaxlit bir butun holga keltirib, ular orasidagialoga va bog'lanishlarni bilishdir. Analiz va sintez bilish jarayonidagi bir, moddiy va mantiqiy amalning ikki tomoni bo'lib, ularni bir-biridan ajratib qo'llab bo'lmaydi, chunki tabiatdagi va jamiyatdagi hamma narsalar, jarayonlar ko'p tomonlidir.

Tadqiqotchi o'rganayotgan predmet yoki hodisalar ustida olib brogan kuzatish va tajribalari, analiz va sintezlarini o'z tafakkurida umumlashtiradi, abstraktlashtiradi va oydinlashtiradi. Tafakkur jarayonida yuz beradigan bu amallar ham ilmiy bilishning umumiy metodlarini tashkil qiladi.

Abstraktlashtirish – bu tadqiqot olib borilayotgan bir qancha predmet yoki hodisalarga hos bo'lgan xususiyatlar va xossalarni fikran e'tibordan soqit qilib, tadqiqot uchun zarur hisoblangan biror belgi yoki xusuiyatni ajartib olishdir.

Oydinlashtirish - umumlashtirish va abstraktlashtirish jarayonida ajratib olingan, e'tibordan soqit qilingan belgi va xususiyatlarni yana obyekt bilan bog'lab, shu obyekt haqida aniq bir fikr hosil qilishdir. Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, umumlashtirishdan abstraktlshtirishga va undan oydinlashtirishga o'tiladi.

Induksiya va deduksiya. Ushbu metodlar bilishning shunday usuliki, bunda tadqiqotchi o'z tafakkurida tekshirayotgan obyekt to'g'risidagi bir qancha juz'iy dalillardan, ular haqidagi ayrim bilimlardan umumiyrioq bilimlarga (induksiya) va umumiy bilimlardan juz'iy, qisman yoki xususiy bilimlarga (deduksiya) o'tadi. Insonning bilish tajribasidan shu narsa ma'lumki, agar biror xususiyat bir sinf yoki jinsdagi hamma obyektlarga xos bo'lsa, bu xusuiyat shu sinf yoki jinsga oid har bir obektga ham xos bo'ladi.

Ma'lumotlarni kuzatish va tahlil qilish natijasida quyidagi xulosaga keldik, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ tafakkurini shakllantirish zamon talabi. Bu talabni bajarishda esa bizdan ko'proq izlanish olib boorish talab etiladi. Izlanishlarimiz ijobiy natija ko'rsatishida esa tadqiqot metodlarining o'rni katta. Agar biz tadqiqot metodlarini to'g'ri tanlay olsak, shuningdek ular bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lsak tadqiqotdan ko'zlangan maqsadga erishamiz va ijobiy natijalarni amaliyot bilan bog'lay olamiz.

REFERENCES:

- 1.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" qonuni 2020 yil.
- 2.Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O'zbekiston", 2017 yil, 488 bet.
3. Abdullayeva Q. , Ochilov M. , Nazarov K. , Fuzailov S. , Bikbayeva N. "Boshlang'ich maktab darliklarini yaratish mezonlari. T. : 1999
- 4.Shermuxammedova N.A. , Ilmiy tadqiqot metodologiyasi T.: 'Innovatsiya-Ziyo', 2020 454
- 5.Olsson Thomas, Martensson Katarina and Rpoxa Torgny. Pedagogical competence. Swedish, Divison for Development of Teaching and Learning, Uppsala University, 2010
- 6.Nusratova H. (2021, October). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish: DOI:10.53885/edinres. 2021.80.81.021 Nusratova Hamida, Nizomiy nomidagi TDPU, Boshlang'ich ta'lim fanlari kafedrası dotsenti, Phd. In Научно-практическая конференция.
- 1%.Nusratova H. Egamqulova I. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING KREATIV TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH 21 ASR TALABI DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.7424038>